



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 28-avgust

440-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida kriptologiya sohasida ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 15-avgustdagi PQ–293-son qarori ijrosi haqida” 396-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida kriptologiya sohasida ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 15-avgustdagi PQ–293-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-avgustdagi 396-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida kriptologiya sohasida ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 15-avgustdagi PQ–293-son qarori ijrosi haqida” 396-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta’minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:
quyidagilar:

2024-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida kriptologiya sohasida ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasida milliy kriptologiya sohasini rivojlantirishning dolzarb yo‘nalishlari bo‘yicha 2024-2028-yillarga mo‘ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

dasturga kiritilgan mavzularning ijrosi Davlat xavfsizlik xizmati tomonidan o‘tkaziladigan tanlovlar asosida respublikaning sohaviy tashkilotlarini jalb qilgan holda amalga oshirilishi;

Davlat xavfsizlik xizmati buyurtmasiga muvofiq Dasturga kiritilgan mavzularni Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi tanlovlari doirasida bajarilishiga ruxsat berilishi;

dastur doirasida erishilgan ilmiy natijalar va ishlab chiqilgan innovatsion mahsulotlar Davlat xavfsizlik xizmati tasarrufidagi O‘zbekiston Respublikasining intellektual mulki hisoblanishi;

vazirlik va idoralar rahbarlari zimmasiga qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlar hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklanganligi;

Davlat xavfsizlik xizmati huzurida respublikaning oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning tajribali mutaxassislaridan iborat Kriptologiya sohasida idoralararo ekspert guruhi (keyingi o'rinlarda – Ekspert guruhi) tashkil etilishi;

Quyidagilar

Ekspert guruhining asosiy vazifalari etib belgilanganligi:

davlat va jamiyat hayotidagi real ehtiyojlarni inobatga olgan holda, respublikada kriptologiya sohasida dolzarb muammolarni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot mavzularini shakllantirish;

ilg'or xorijiy davlatlar tajribalari asosida kriptologiya sohasiga oid fan dasturlari, darsliklar va boshqa o'quv materiallariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish hamda ular bo'yicha ekspert xulosalarini berish;

kriptologiya sohasida milliy standartlar loyihalarini ko'rib chiqish hamda ularning axborot xavfsizligi va zamonaviy kiberxavfsizlik talablariga mosligi yuzasidan xulosalar berish, shuningdek, ularni takomillashtirish bo'yicha tavsiya va takliflar ishlab chiqish;

Ekspert guruhi Davlat xavfsizlik xizmati huzurida doimiy faoliyat yuritadigan idoralararo kollegial organ hisoblanishi;

Ekspert guruhining faoliyati moddiy-texnik jihatdan qonunchilikda belgilangan tartibda Davlat xavfsizlik xizmati tomonidan respublika budjeti mablag'lari hisobidan ta'minlanishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov